

**ZAMONAVIY SHAROITLARDA TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHINI
BOSHQARISHDA O'ZBEKISTON TAJRIBASI**

Xayrullayeva Moxinur Odiljon qizi

Talabasi, Zarmed Universiteti, Muhandislik, Iqtisodiyot va
Gumanitar fanlar instituti "Moliyaviy va
moliyaviy texnologiyalar" yo'nalishi SBT0425 - guruh

Annotatsiya:

Mazkur maqolada zamonaviy sharoitlarda ta'lim tizimi rivojlanishini boshqarishning nazariy asoslari, boshqaruv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, innovatsion yondashuvlar va ta'lim sifatini oshirish omillari tahlil qilinadi. Ta'lim menejmenti jarayonida strategik rejalashtirish, inson kapitaliga investitsiya, raqamlashtirish hamda pedagogik jarayonni optimallashtirishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi boshqaruvi, strategik yondashuv, innovatsion ta'lim, STEM ta'limi, maktabgacha ta'lim, pedagogik menejment, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, milliy g'oya konsepsiyasi, "Kelajak" markazlari, ta'lim sifatini oshirish.

Аннотация:

В данной статье анализируются теоретические основы управления развитием системы образования в современных условиях, особенности процесса управления, инновационные подходы и факторы повышения качества образования. Рассматривается значение стратегического планирования, инвестиций в человеческий капитал, цифровизации и оптимизации педагогического процесса в менеджменте образования.

Ключевые слова: Управление системой образования, стратегический подход, инновационное образование, STEM-образование, дошкольное образование, педагогический менеджмент, подготовка конкурентоспособных кадров, концепция национальной идеи, центры «Kelajak», повышение качества образования.

Abstract:

This article analyzes the theoretical foundations of managing the development of the education system in modern conditions, the specific features of the management process, innovative approaches, and factors for improving the quality of education. The importance of strategic planning, investment in human capital, digitalization, and optimization of the pedagogical process in education management is highlighted.

Keywords: Education system management, strategic approach, innovative education, STEM education, preschool education, pedagogical management, preparation of competitive personnel, national idea concept, “Kelajak” centers, improvement of education quality.

Bugungi kunda mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar ta‘lim sohasining tamoyillari, maqsadlari va vazifalarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo qilmoqda. Yangi O‘zbekiston sharoitida ta‘lim muassasalari va mahalliy ta‘lim boshqaruv organlariga ta‘lim tizimi rivoji uchun eng maqbul yo‘nalishlarni tanlash zarurati yuzaga kelmoqda. Ta‘lim jarayonining insonparvarlashuvi, demokratlashuvi, innovatsiyalarning kengayishi pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarishda yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

O‘zbekiston ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar eng avvalo boshqaruv tizimining yangilanishida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi bosqichda quyidagi tendensiyalar ko‘zga tashlanadi:

- markaziy va mahalliy boshqaruv vakolatlarining aniqlashtirilishi;
- hududiy ta‘lim boshqaruvida mas’uliyatning oshirilishi;
- ta‘lim muassasalarining avtonomligi va tashabbuskorligining kuchaytirilishi.

O‘zbekiston ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan bo‘lib, uning barcha bo‘g‘inlarini kompleks rivojlantirish, o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish va boshqaruvni takomillashtirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar ta‘limni boshqarishda strategik yondashuv, tizimlilik va innovatsion o‘zgarishlarni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Bular quydagilardan iborat:

Birinchidan, ta‘lim jarayonida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni samarali tashkil etish maqsadida bolalar bog‘chasidan oliy ta‘limgacha qamrab oluvchi yagona milliy g‘oya konsepsiyasi ishlab chiqilgani boshqaruvning muhim tarkibiy qismidir. Bu konsepsiya ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-tarbiyaviy faoliyatni birxillashtirish, ortiqcha tadbirlarni kamaytirish va o‘quvchilar bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda yagona standartlarni joriy etadi.

Ikkinchidan, boshqaruv tizimini takomillashtirishda o‘quvchilarning qiziqishlari, iste‘dodini va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda “Barkamol avlod”, Respublika o‘quvchi-yoshlar markazi va “Yoshlik” jamiyati negizida “Kelajak” markazlari tashkil etilishi rejalashtirilgan. Bu markazlar yagona vertikal tizim sifatida ishlaydi va o‘quvchilarning ijodiy hamda intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratiladi. Maktablar tizimida “maktab maslahatchisi” lavozimining joriy etilishi esa boshqaruvning yangi bo‘g‘ini sifatida yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, ta‘limni modernizatsiya qilish jarayonida maktabgacha ta‘lim qamrovini oshirish bo‘yicha samarali boshqaruv mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Xususan, yangi

qurilayotgan uylar hududida aholiga mos ravishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari qurilishi, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida bog'chalar tashkil etishga imkon berilishi tizimni boshqarishda moslashuvchanlikni kuchaytiradi. Xususiy sektorni rag'batlantirish maqsadida yer maydonlarining bepul ajratilishi va imtiyozli kreditlar berilishi boshqaruvning bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashganligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, zamonaviy iqtisodiyot talablari asosida muhandislik va texnika yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilmoqda. STEM modeli asosida 5 yillik ta'lim dasturlarini joriy etish, o'quvchilarning saralab olinishi va ta'lim xarajatlarining Davlat byudjeti tomonidan qoplab berilishi ta'lim tizimini strategik boshqarishning yangi bosqichidir. Shuningdek, tabiiy fanlar yo'nalishidagi ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etilishi ta'lim sifatini hududlar kesimida muvozanatlashtirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, pedagogik kadrlarni rag'batlantirish tizimida ham o'zgarishlar joriy etilib, pedagogika yo'nalishidagi talabalar uchun Abdulla Avloniy nomidagi davlat stipendiyasining ta'sis etilishi ta'lim tizimida inson kapitalini boshqarishning zamonaviy yondashuvini ifodalaydi.¹

Hozirgi ta'lim boshqaruvi tizimi avvalgi ma'muriy-buyruqbozlik yondashuvidan bosqichma-bosqich samaradorlikka, natijaga yo'naltirilgan boshqaruv modeliga o'tish jarayonida turibdi. Tizimda yangi tendensiyalar bilan birga hali eskidan qolgan ayrim unsurlar ham mavjud: ma'muriy bosimning pasayishi bilan birga ba'zan tartib-intizomning kamayishi, ijodiy yondashuv imkoniyatlarining ortishi bilan birga boshqaruv qarorlarida uyg'unlikning yetishmasligi kabi holatlar kuzatilmoqda. Ayni vaqtda boshqaruvdagi o'zgarishlar hali to'liq prognozashtirilgan strategik asosda emas. Buning asosiy sabablari sifatida strategik rejalashtirishning yetarli darajada shakllanmaganligi, ta'lim tizimi rivojlanishiga oid siyosatni izchil amalga oshirish mexanizmlarining to'liq shakllanmaganligi ko'rsatish mumkin.

Strategik rejalashtirish mohiyatini ochish uchun avvalo "ta'limni boshqarish" va "ta'lim rivojlanishini boshqarish" tushunchalarini farqlash zarur. Ushbu tushunchalarning mazmuni psixologik, pedagogik, sotsiologik va falsafiy adabiyotlar tahlili asosida aniqlanadi.

XX asr boshlarida F.Teylor tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy boshqaruv nazariyasi zamonaviy ta'lim menejmenti uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Teylor boshqaruv samaradorligini oshirish uchun to'rt asosiy tamoyilni ilgari suradi:

- mehnat jarayonini ilmiy asosda tashkil etish;
- xodimlarni ilmiy asosda tanlash;
- ularni tizimli o'qitish va malakasini oshirish.

Teylor ta'kidlaganidek, ilmiy mehnat tashkiloti xodimning shaxsiy tajribasidan ko'ra aniq me'yorlar, qoidalar va strategiyalarni ustun qo'yishni talab qiladi. Unda boshqaruvning asosiy elementi **aniq belgilangan vazifa va rag'batlantirish tizimidir**. F.Teylor va uning izdoshlari

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/8468>

ilmiy asoslangan boshqaruv oddiy tajribaga asoslangan boshqaruvdan ko'ra ancha samarali natija berishini amaliy isbotlab berganlar. Bu yondashuv keyinchalik boshqaruvda keng miqyosli "ilmiy menejment harakati"ga asos bo'ldi.²

O'zining boshqaruv nazariyasini fransuz olimi A.Fayol taklif qilgan bo'lib, u bevosita boshqaruv faoliyatini va boshqaruv tizimini oqilona tashkil etish usullarini tadqiq qilgan. Uning nazariyasiga ko'ra, boshqarish oldindan ko'ra bilish (ya'ni kelajakni hisobga olish va harakatlar dasturini ishlab chiqish), tashkil etish, buyruq berish (ya'ni xodimlarni samarali ishlashga yo'naltirish), muvofiqlashtirish (ya'ni barcha harakatlar va sa'y-harakatlarni uyg'unlashtirish va birlashtirish) hamda nazorat qilish (ya'ni barcha jarayonlar belgilangan qoidalar va ko'rsatmalarga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash)dir.³ Fayolning yondashuvi boshqaruvni faqat ma'muriy jarayon sifatida emas, balki tizimli rejalashtirish, uyg'unlashtirish va nazorat orqali maksimal samaradorlikka erishishni ko'zlovchi ilmiy faoliyat tarzida talqin etadi. Shu jihatdan uning konsepsiyasi zamonaviy ta'lim boshqaruvi uchun ham nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Amerikalik sotsiolog va psixolog E.Meyo "insoniy munosabatlar nazariyasi" deb ataluvchi boshqaruv konsepsiyasini ishlab chiqqan. Ushbu nazariyaning markazida guruhlar ichida va guruhlar o'rtasida shakllanadigan me'yorlar, qadriyatlar, e'tiqodlar hamda ichki aloqalar tarmog'i turadi. Meyo rahbarlar uchun boshqaruv amaliyotida keng qo'llaniladigan qator tavsiyalarni ishlab chiqqan (rahbarlik uslubi, xulq-atvor tiplari, rag'batlantirish tizimi va boshqalar). Bu yondashuv bizning tadqiqotimiz uchun ham muhim, chunki mahalliy ta'lim boshqaruvida insoniy munosabatlar tizimi uning rivojlanishidagi asosiy resurslardan biridir.⁴

1950-yillarning boshlarida boshqaruvga nisbatan tizimli yondashuv shakllana boshladi. Bu, asosan, tizimlar nazariyasining rivoji va ratsional hamda xulq-atvor yondashuvlarining afzalliklarini birlashtirishga bo'lgan intilish bilan bog'liq edi. Tizimli yondashuvga ko'ra, tashkilot bir-biri bilan bog'langan va o'zaro ta'sir qiluvchi qismlar yig'indisidan iborat bo'lib, natijada butunlik hosil bo'ladi va bu butunlik o'z tarkibiy qismlariga xos bo'lmagan yangi sifatlarni namoyon etadi. Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan, tashkilot ochiq tizimli bo'lib, tashqi muhit bilan o'zaro energiya, axborot va materiallar almashinishi kerak hisoblanadi. Uning samaradorligi esa nafaqat ichki tizim xususiyatlari, balki tashqi muhit sharoitlari bilan ham belgilanadi. Tashkilotning biror qismida ro'y beradigan o'zgarish boshqalarda ham o'zgarishlarni taqozo qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida menejerning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki innovatsion jarayonlarni tashkil etish, ta'lim muassasasining barqaror rivojlanishini ta'minlash va boshqaruv faoliyatini samarali yo'lga qo'yish bevosita menejerning kasbiy salohiyatiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy boshqaruv

² Тейлор Ф. Принципы научного менеджмента. - М., 1991. С. 31

³ Файоль А. Общее и промышленное управление: Пер. с франц. - М.: 1992

⁴ Mayo, E. *The Human Problems of an Industrial Civilization*. Macmillan New York: 1933. P.65

nazariyasida ta'kidlanishicha, menejerning faoliyati puxta prognozlashga, aniq rejalashtirishga va o'zgaruvchan tashqi sharoitlarga mos ravishda boshqaruv tizimini qayta tashkil eta olishga asoslanadi. L.I.Shipilina ta'kidlashicha, bugungi boshqaruv murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va axborot-texnologik jarayon bo'lib, moslashuvchan tashkiliy tizimga ega, bozor talablariga tez javob qaytara oladigan, tashqi muhit o'zgarishlarini chuqur hisobga olishga qodir bo'lgan boshqaruv modeli sifatida namoyon bo'ladi. Uning fikriga ko'ra, zamonaviy menejmentning mazmuni **ma'naviy yangilanish, innovatsion faoliyat** va inson omiliga tayanadigan boshqaruvdir. Chunki menejmentning kuchi avvalo insonning ehtiyojlari, maqsadlari va tashabbuskorligidan boshlanadi.⁵ Pedagogik menejment nazariyasi bo'yicha yondashuvlar V.I.Zvereva, V.I.Zagvyazinskiy, Yu.A.Konarjevskij, V.S.Lazarev, M.M.Potashnik, P.I.Tret'yakov, R.X.Shakurov, G.I.Shamova va boshqalar ham ta'lim sohasidagi boshqaruvni quyidagicha talqin qiladi. **Boshqaruv degani eng avvalo, ta'lim muassasasida mazmungan puxta o'ylangan, moslashuvchan va strategik qarorlarni ishlab chiqish, qabul qilish va ularni natijaviy amalga oshirish jarayonidir.** Bunday qarorlar ta'lim tizimi rahbarlarining faoliyat mazmunini, boshqaruvning usullari va yakuniy samaradorligini belgilaydi. Bugungi boshqaruvda alohida e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biri **strategik menejment**dir. I.Ansoff, D.Karloff kabi nazariyotchilar ham bu tushunchani korporativ maqsadlar, uzoq muddatli strategik rejalashtirish, korporativ madaniyat va boshqaruv falsafasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hamda ularning uyg'un rivojlanishini anglatadigan jarayon sifatida izohlaydi. Strategik menejmentning vazifalari quyidagilarni qamrab oladi:

- tashkilotning umumiy falsafasini aniqlash;
- uzoq muddatli maqsad va vazifalarni belgilash;
- funksional, hududiy va tashkiliy strategiyalarni ishlab chiqish;
- boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish;
- belgilangan strategiyaning amalga oshirish, monitoring qilish va natijalarni baholash;
- tashkilotning istalgan korporativ madaniyat modelini shakllantirish.⁶

Ta'lim tizimini boshqarishda strategik yondashuvning joriy etilishi rahbarga nafaqat mavjud jarayonlarni tartibga solish, balki ta'lim muassasasining uzoq muddatli istiqbolini aniqlash, innovatsiyalarni tatbiq etish va jamoaning ichki salohiyatini samarali yo'naltirish imkonini beradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar strategik yondashuv, innovatsion boshqaruv va tizimli rivojlanishni ta'minlamoqda. Milliy g'oya konsepsiyasi, "Kelajak" markazlari, maktabgacha ta'limni kengaytirish, STEM yo'nalishidagi ixtisoslashtirilgan maktablar va pedagoglarni rag'batlantirish tizimi ta'lim boshqaruvini samarali, barqaror va

⁵ Shipilina, L.I. *Modern Management in Education* Akademiya. Moscow.: 2010. P. 41

⁶ Ansoff, H.I. *Corporate Strategy: An Analytic Approach to Business Policy for Growth and Expansion*. New York: McGraw-Hill. 1965.

moslashuvchan qilmoqda. Bu yondashuv o'quvchi va o'qituvchilarning salohiyatini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va kelajak kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Ansoff, H.I. Corporate Strategy: An Analytic Approach to Business Policy for Growth and Expansion. New York: McGraw-Hill. 1965.*
2. *Mayo, E. The Human Problems of an Industrial Civilization. Macmillan New York: 1933*
3. *Тейлор Ф. Принципы научного менеджмента. - М., 1991.*
4. *Файоль А. Общее и промышленное управление: Пер. с франц. - М.: 1992*
5. *Shipilina, L.I. Modern Management in Education Akademiya. Moscow.: 2010. P. 41*
6. <https://president.uz/oz/lists/view/8468>

